FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.FM.05.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI FARG‘ONA FILIALI

TULAKOVA ZIYODAXON RIVOJIDINOVNA

KO‘P O‘ZGARUVCHILI GIPERGEOMETRIK FUNKSIYALAR VA ULARNING SINGULYAR KOEFFITSIYENTLI ELLIPTIK TENGLAMA UCHUN CHEKLI VA CHEKSIZ SOHALARDA CHEGARAVIY MASALALAR YECHISHGA TATBIQLARI

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Farg‘ona – 2025

UDK: 517.95

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical – mathematical sciences

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.FM.05.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI FARG‘ONA FILIALI

TULAKOVA ZIYODAXON RIVOJIDINOVNA

KO‘P O‘ZGARUVCHILI GIPERGEOMETRIK FUNKSIYALAR VA ULARNING SINGULYAR KOEFFITSIYENTLI ELLIPTIK TENGLAMA UCHUN CHEKLI VA CHEKSIZ SOHALARDA CHEGARAVIY MASALALAR YECHISHGA TATBIQLARI

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

FIZIKA - MATEMATIKA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Farg‘ona – 2025

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/FM1059 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filialida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.fdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Ergashev Tuxtasin Gulamjanovich** fizika-matematika fanlari doktori, dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Djamalov Sirojiddin Zuxriddinovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Irgashev Baxrom Yusupxanovich fizika-matematika fanlari nomzodi
Yetakchi tashkilot:	**Urganch davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.FM.05.04 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «20» 03 soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 150100, Farg'ona shahar, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.:(+99873) 244-44-02, faks: (+99873) 244-44-93, ye-mail: fardu_info@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot - resurs markazida tanishish mumkin (470 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 150100, Farg'ona shahar, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.:(+99873) 244-44-94.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 «7» 03 kuni tarqatildi.

(2025-yil «7» 03 dagi 5 raqamli reyestr bayonnomasi).

Sh.T. Karimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi o'rinbosari, f.-m.f.d., dotsent

I.U. Xaydarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.n., dotsent

Y.P. Apakov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari, f.-m.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida olib borilayotgan koʻplab amaliy masalalarni tatqiq etish differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalalarni yechishga olib kelinadi. Xususan, mexanika, gidrodinamika, elastiklik dinamikasi, elektromagnetizm va akustika jarayonlarini matematik modellari singulyar koeffitsiyentli xususiy hosilali differensial tenglamalarga keltiriladi. Masalan, biologiya va gaz dinamikasining fundamental qonunlarini elliptik tipdagi singulyar koeffitsiyentli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun qoʻyilgan chegaraviy masalalarga olib kelinadi. Bundan koʻrinadiki, singulyar elliptik tenglamalar uchun chegaraviy masalalarni tadqiq etish yuqoridagi amaliy masalalar haqida toʻla tasavvur hosil qilganligi tufayli, xususiy hosilali differensial tenglamalar nazariyasining dolzarb yoʻnalishlaridan biri sifatida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Dunyoda koʻp oʻzgaruvchili gipergeometrik funksiyalar oʻzgaruvchilarining maxsus nuqtalardagi qiymatlarini va koʻp karrali xosmas integrallarni hisoblashning yangi formulalarini topish masalalariga oid ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, koʻp oʻzgaruvchili gipergeometrik funksiyalarning yangi xossalarini tadqiq etish va koʻp karrali umumlashgan xosmas integralni hisoblash formulasini isbotlash hamda olingan yangi natijalarni singulyar koeffitsiyentli koʻp oʻlchovli elliptik tenglama uchun cheksiz sohalarda chegaraviy masalalarning oshkor koʻrinishdagi yechimlarini qurishga va aralash masalani potensiallar nazariyasi yordamida yechishga tatbiq etish borasida maqsadli ilmiy tadqiqotlarga alohida e’tibor berilmoqda.

Respublikamizda fundamental tadqiqotlarga, xususan, matematik biologiya va gaz dinamikasida ilmiy va amaliy tatbiqlarga ega boʻlgan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. Jumladan, soʻnggi yillarda Laurichella gipergeometrik funksiyalari uchun rekurrentlikdan holi boʻlgan yoyilma formulalar isbotlandi va xususiy hosilali singulyar fazoviy elliptik tenglamalar uchun chekli sohalarda chegaraviy masalalarni yechishda salmoqli natijalarga erishildi. “Differensial tenglamalar va matematik fizika, dinamik sistemalar nazariyasi” fanlarining ustivor yoʻnalishlarida xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish matematika fanining asosiy vazifalari va faoliyat yoʻnalishlari etib belgilandi[1]. Bu qarorning ijrosini ta’minlashda muhim vazifalar belgilab berilgan, jumladan ilmiy natijalardan ilm-fanning turdosh sohalarida foydalanish maqsadida singulyar fazoviy elliptik tenglamalar uchun chekli va cheksiz sohalarda, mos ravishda, asosiy chegaraviy masalalarni yechish va potensiallar nazariyasini qurish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 iyuldagi PQ-4387-son «Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash, shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining

[1] Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 18 maydagi «Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy-tadqiqot institutlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi 292-son qarori

V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi va 2020 yil 7 maydagi PQ-4708-son «Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ–huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. «Matematika, mexanika va informatika» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ma’lumki, elliptik tenglamalar uchun chegaraviy masalalarni yechishda tenglamaning fundamental yechimlari muhim ahamiyatga ega. Elliptik tenglamalarning fundamental yechimlarini topish har doim ham oson kechavermaydi. Ayniqsa, bu muammo buziladigan yoki singulyar koeffitsiyentli elliptik tenglamalarda o‘ziga xos murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Bugungi kunga qadar buziladigan yoki singulyar koeffitsiyentli elliptik tenglamalarning fundamental yechimlarini topish va ularni chegaraviy masalalarga tatbiq etish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan bir qancha natijalar olingan. Xususan, ikki o‘lchovli bitta buzilish chizig‘iga ega bo‘lgan (bitta singulyar koeffitsiyentli) model elliptik tenglama uchun fundamental yechimni dastlab F.Trikomi oshkor ko‘rinishda yozib olgan, A.Weinstein esa ikki o‘lchovli ikkita buzilish chizig‘iga ega bo‘lgan (ikkita singulyar koeffitsiyentli) tenglama fundamental yechimlarining integral tasvirini topgan. Keyinchalik bunday tenglamalarning turli hollari uchun fundamental yechimlar qurish bilan R.J.Weinacht, R.Gilbert J.J.Barros-Neto, I.M.Gelfand, J.D.Cole, E.T.Copson, M.Itagaki, O.I.Marichev, N.Radjabov, A.K.Urinov, A.Xasanov va E.T.Karimov shug‘ullangan. T.G.Ergashev esa ko‘p o‘lchovli singulyar elliptik tenglamaning fundamental yechimlarini o‘zgaruvchilari soni tenglamadagi singulyar koeffisientlar soniga teng bo‘lgan Laurichella funksiyasi yordamida topgan hamda fundamental yechimlarning xossalarini o‘rgangan.

Aralash elliptik-giperbolik model tenglama uchun chegaraviy masalalarni o‘rganish Trikomi ishlaridan boshlangan bo‘lsada, Holmgren birinchi bo‘lib umumlashgan Trikomi tenglamasi uchun elliptik sohada hozirgi kunda uning nomi bilan ataladigan chegaraviy masalaning yechimini oshkor ko‘rinishda topgan. Buziladigan elliptik tenglamalar uchun chegaraviy masalalar nazariyasi I.N.Vekua, F.I.Frankl, L.Wolfersdorf va S.P.Pulkin tomonidan rivojlantirilgan. Keyinchalik, A.Xasanov, E.T.Karimov va A.Ryskanlar tomonidan ikkita, uchta va to‘rtta singulyar koeffitsientga ega bo‘lgan elliptik tenglamalar uchun chegaraviy masalalarning yechimlari Appell va Laurichella gipergeometrik funksiyalari yordamida ifodalangan. T.G.Ergashev ko‘p o‘lchovli bir necha singulyar koeffitsiyentli elliptik tenglama uchun chekli sohalarda qo‘yilgan chegaraviy masalalarning yechimlarini o‘zgaruvchilari soni tenglamadagi singulyar koeffisiyentlar sonidan bittaga kam bo‘lgan Laurichella gipergeometrik funksiyasi orqali ifodalagan.

O‘zgaruvchilarni ajratish va Grin funksiyasi usullari yordamida sodda tuzilishdagi standart sohalardagina chegaraviy masalalarni yechish mumkin bo‘lganligi sababli, chegaraviy masalalarni umumiyroq sohalarda yechish maqsadida, S.Gellerstedt ikki o‘lchovli bitta buzilish chizig‘iga ega bo‘lgan model tenglama uchun potensiallar nazariyasini qurib, uni Dirixle va Holmgren masalalarini yechishga tatbiq qilgan. So‘nggi yillarda S.Gellerstedt o‘rgangan masalalarni T.G.Ergashev bitta singulyar koeffitsiyentli fazoviy elliptik tenglamaga umumlashtirdi. Bundan tashqari, M.M.Smirnov va T.G.Ergashevning ilmiy natijalarida ikki va uch o‘lchovli singulyar koeffitsiyentli elliptik tenglama uchun qo‘yilgan aralash masalalarni yechish uchun potensiallar nazariyasi qurilgan. Yuqoridan ko‘rinadiki, ixtiyoriy ko‘p o‘lchovli singulyar koeffitsiyentli elliptik tenglama uchun aralash masalani potensiallar nazariyasi yordamida yechish muhim ahamiyatga ega. Mazkur dissertatsiya ishi yuqoridagi ishlarning mantiqiy davomi bo‘lib, bunda ko‘p o‘lchovli singulyar koeffitsiyentli elliptik tenglama uchun Dirixle va Neyman tipidagi masalalarni Evklid fazosining qismi bo‘lgan cheksiz sohada, aralash masalani esa yarim fazoda joylashgan chekli sohada yechishga bag‘ishlangan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg‘ona filiali ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Murakkab fizik va texnologik jarayonlarni matematik modellashtirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ikkinchi tartibli singulyar koeffitsiyentli elliptik tenglama uchun cheksiz sohada asosiy chegaraviy masalalarning yechimlarini oshkor ko‘rinishlarda topish va chekli sohada aralash masalani potensiallar nazariyasi usulida yechishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

bir nechta singulyar koeffitsiyentli elliptik tenglama uchun qo‘yilgan chegaraviy masalalar yechimlarini oshkor ko‘rinishlarda qurishda foydalanish uchun Laurichella gipergeometrik funksiyasining xossalarini isbotlash;

chegaraviy masalalarning oshkor topilgan yechimlari xossalarini isbotlashda zarur bo‘ladigan ko‘p karrali xosmas integralni hisoblash formulasini topish;

cheksiz sohada bir necha singulyar koeffitsiyentli elliptik tenglama uchun Dirixle va Neyman masalalari hamda aralash shartlar bilan berilgan chegaraviy masalaning bir qiymatli yechilishini isbotlash;

ko‘p o‘lchovli bitta singulyar koeffitsiyentli elliptik tenglama uchun qo‘yilgan aralash masalaning potensiallar nazariyasi usulidan foydalanib bir qiymatli yechilishini isbotlash.

Tadqiqotning ob’yekti. Ko‘p o‘zgaruvchili gipergeometrik funksiyalar va bir nechta singulyar koeffitsiyentli elliptik tenglama.

Tadqiqotning predmeti. Chekli va cheksiz sohalarda singulyar koeffitsiyentli elliptik tenglama uchun chegaraviy masalalar.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida matematik analiz, maxsus funksiyalar nazariyasi va integral tenglamalar nazariyasi hamda Riman, ekstremum prinsipi va energiya integrallari usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bir nectha singulyar koeffitsiyentli elliptik tenglama uchun qo‘yilgan chegaraviy masalalarning oshkor ko‘rinishlardagi yechimlarini qurishda zarur bo‘ladigan Laurichella gipergeometrik funksiyalarining xossalari maxsus funksiyalar nazariyasidan foydalanib isbotlangan;

chegaraviy masalalarning oshkor topilgan yechimlari xossalarini isbotlash imkonini beradigan ko‘p karrali xosmas integralni hisoblash formulasi o‘zgaruvchilarni almashtish usuli va maxsus funksiyalar nazariyasidan foydalanib asoslangan;

bir nechta singulyar koeffitsiyentli elliptik tenglama uchun cheksiz sohada Dirixle va Neyman masalalari hamda aralash shartlar bilan berilgan masalaning bir qiymatli yechilishi maxsus funksiyalar nazariyasi, ekstremum prinsipi usuli va energiya integrallari usulidan foydalanib isbotlangan;

ko‘p o‘lchovli bitta singulyar koeffitsiyentli elliptik tenglama uchun potensiallar nazariyasi qurilgan va bu nazariya yordamida mazkur tenglama uchun qo‘yilgan aralash masalaning bir qiymatli yechilishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat: ko‘p o‘zgaruvchili gipergeometrik funksiyalarning xossalarini tadqiq etish uchun funksiyaning argumentlari nolga intilgandagi qiymatini ifodalovchi formulani topish algoritmi taklif qilingan hamda chekli va cheksiz sohalarda singulyar koeffitsiyentli elliptik tenglama uchun qo‘yilgan asosiy chegaraviy masalalarni yechish usuli bayon qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi singulyar koeffitsiyentli elliptik tenglamaning fundamental yechimlarini qurishda, bu tenglama uchun qo‘yilgan chegaraviy masalalarning yechimlarini oshkor ko‘rinishlarda topishda va potensiallar nazariyasini tadqiq etishda matematik tahlil, matematik fizika va maxsus funksiyalar nazariyalari usullaridan qat’iy foydalanilganligi bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishda olingan natijalardan singulyar koeffitsiyentli elliptik tenglamalar nazariyasida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining amaliy ahamiyati shundan iboratki, undan fazali o‘tish masalalari va kritik hodisalarning tenglamalarini matematik jihatlarini tadqiq etishda, gidrotexnik inshootlarda suyuqliklar oqimining tezligini va kompozit materiallardan tayyorlangan gaz quvurlarida gazlarning harakatini aniqlashda, qavariq qobiqli jismlardagi hajm o‘zgarishi va deformatsiya orasidagi bog‘lanishni topishda, tovush tezligidan yuqori va tovush tezligiga yaqin tezliklardagi gazlarning holat tenglamalarini qurishda, ko‘p karrali xosmas integrallarda qatnashadigan Laurichella gipergeometrik funksiyasining integral tasvirini isbotlashda, tanadagi kapilyar to‘qimalar hamda hujayralarning deformatsiyasi va o‘rganuvchi biomexanikada, optik muhitda kuchli yorug‘lik to‘lqinlarining tarqalishini tavsiflash kabi bir qator mexanik jarayonlarni modellashtirishda, shuningdek fanning boshqa sohalarida tegishli jarayonlarni matematik modellashtirishda, shuningdek, fanning boshqa sohalariga tegishli jarayonlarni matematik modellashtirishda qo’llash mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ko‘p o‘zgaruvchili gipergeometrik funksiyalar va ularning singulyar koeffitsiyentli elliptik tenglama uchun chekli va cheksiz sohalarda chegaraviy masalalar yechishga tatbiqlari bo‘yicha olingan natijalar asosida:

Laurichella gipergeometrik funksiyasining maxsus nuqtalardagi logarifmik va darajali maxsusliklarni aniqlash usulidan №374874-2022 raqamli «Fazali o‘tish masalalari va kritik hodisalar. Tenglamalarning matematik jihatlari, tezkor o‘tishlar va asimptotika» mavzusidagi xorijiy loyihada fazali o‘tish masalalari va kritik hodisalarning tenglamalarini matematik jihatlarini tadqiq etishda foydalanilgan (Qirg‘iziston Respublikasi O‘sh davlat universitetining 2024-yil 17-sentabrdagi №1210 sonli ma’lumotnomasi). Natijada, cheksiz sohalarda buziladigan xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun yangi masalalarning bir qiymatli yechilishini isbotlash va qo‘yilgan masalalar shartlarining bajarilishini tekshirishga imkon bergan.

chegaraviy masalalarning yechimlarini tadqiq etishda zarur bo‘ladigan ko‘p karrali xosmas integralni hisoblash formulasidan AR14972818 raqamli «Matematik fizika yuqori tartibli noklassik tenglamalarining fundamental yechimlarini qurish usullarini ishlab chiqish» mavzusidagi xorijiy loyihada Laurichella gipergeometrik funksiyasining integral tasvirini isbotlashda foydanilgan (Abay nomidagi Qozog‘iston Milliy universitetining 2024-yil 18-sentabrdagi №15-15-09-02-20/1818 sonli ma’lumotnomasi, Qozog‘iston). Natijada, ikkinchi tartibli buziladigan elliptik tenglama uchun aralash chegaraviy masalaning yagona yechimi mavjudligini asoslashga imkon bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 11 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 24 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta ilmiy maqola, jumladan, 4 tasi xorijiy va 6 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 99 betni tashkil etgan.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi va muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, ob’yekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Ko‘p o‘zgaruvchi gipergeometrik funksiyalarning chegaraviy masalalarni tadqiq etishda zarur bo‘lgan yangi xossalari”** deb nomlangan birinchi bobida ikkita Laurichella gipergeometrik funksiyalari o‘zgaruvchilarining chetki qiymatlaridagi xossalari o‘rganilgan va bitta Laurichella funksiyasining logarifmik va darajali maxsuslikka ega bo‘lish shartlari aniqlangan, bundan tashqari, keyingi boblarda tadqiq etiladigan chegaraviy masalalar yechimlari xossalarini tekshirishda zarur bo‘ladigan bitta ko‘p karrali xosmas integralni hisoblash formulasi topilgan.

Mazkur bobning 1.1-paragrafi yordamchi xarakterda bo‘lib, bu yerda Gauss, Appel va Laurichella gipergeometrik funksiyalari nazariyasidan dissertatsiyaning asosiy natijalarini bayon qilishda zarur bo‘lgan ma’lumotlar keltirilgan.

Bir o‘zgaruvchili $F(a,b;c;z)$ Gauss gipergeometrik funksiyasi nazariyasini o‘rganishda erishilgan ulkan muvaffaqiyatlar ikki va undan ko‘p o‘zgaruvchili gipergeometrik funksiyalar nazariyasining rivojlanishiga turtki bo‘ldi. 1893 yilda Laurichella $F_A^{(n)}\left(a,\mathbf{b};\mathbf{c};\mathbf{x}\right)$ va $F_B^{(n)}\left(\mathbf{a},\mathbf{b};c;\mathbf{x}\right)$ ko‘rinishlardagi ko‘p o‘zgaruvchili birinchi va ikkinchi gipergeometrik funksiyalarni kiritdi. Bu yerda $\mathbf{a}:=\left(a_1,...,a_n\right)$, $\mathbf{b}:=\left(b_1,...,b_n\right)$, $\mathbf{c}:=\left(c_1,...,c_n\right)$; $\mathbf{x}:=\left(x_1,...,x_n\right)$.

Ko‘p o‘zgaruvchili gipergeometrik funksiyalarni singulyar koeffitsiyentli elliptik tenglamalar uchun qo‘yilgan chegaraviy masalalarni ychishda mazkur funksiyalar uchun yoyilma formulalar muhim ahamiyatga ega ekanligini e’tiborga olib, 2020 yilda T.G.Ergashev tomonidan Laurichella funksiyalari uchun qulay yoyilma formulalarini isbotlandi va chegaraviy masalalarning yechimlarini chekli sohalarda oshkor ko‘rinishlarda topishga muvaffaqiyatli qo‘llanildi. Lekin cheksiz sohalarda qo‘yilgan chegaraviy masalalarni yechish jarayonida Laurichella gipergeometrik funksiyalarining boshqa xossalarinini ham qo‘shimcha tadqiq etish zarurati paydo bo‘ldi.

1.2-paragrafda $F_A^{(n)}$ va $F_B^{(n)}$ Laurichella funksiyalarining o‘zgaruvchilarning chetki qiymatlaridagi muhim xossalari tadqiq etilgan hamda $F_A^{(n)}$ Laurichella funksiyasining logarifmik va darajali maxsuslikka ega bo‘lish shartlari aniqlangan va olingan natijalar bir necha teoremalar ko‘rinishida berilgan.

1-teorema. *Aytaylik* a, b_k, c_k – *haqiqiy sonlar bo‘lib,* a, c_k, $c_k-b_k\neq$ $\neq 0,-1,-2,...\left(k=\overline{1,n}\right)$ *va* $a>b_1+...+b_n$ *bo‘lsin. U holda* $n=1,2,...$ *bo‘lganda quyidagi limit munosabatlar o‘rinli bo‘ladi:*

$$\lim_{\mathbf{x}\to 0}\left\{x_1^{-b_1}...x_n^{-b_n}F_A^{(n)}\left(a,\mathbf{b};\mathbf{c};1-\frac{1}{x_1},...,1-\frac{1}{x_n}\right)\right\}=\frac{\Gamma\left(a-b_1-...-b_n\right)}{\Gamma(a)}\prod_{k=1}^{n}\frac{\Gamma\left(c_k\right)}{\Gamma\left(c_k-b_k\right)},$$

$$\lim_{\mathbf{x}\to 0}\left\{x_1^{-b_1}...x_n^{-b_n}F_B^{(n)}\left(\mathbf{a};\mathbf{b};c;1-\frac{1}{x_1},...,1-\frac{1}{x_n}\right)\right\}=\frac{\Gamma\left(c\right)}{\Gamma\left(c-b_1-...-b_n\right)}\prod_{k=1}^{n}\frac{\Gamma\left(a_k-b_k\right)}{\Gamma\left(a_k\right)},$$

bu yerda va bundan keyin $\Gamma\left(z\right)$ *gamma funksiyani anglatadi.*

2-teorema. *$x_1>0,...,\ x_n>0$ bo'lsin. Agar $c_1>b_1>0$, ..., $c_n>b_n>0$ va $a+b_1+...+b_n=c_1+...+c_n$ bo'lsa, u holda $X:=x_1+...+x_n\to 1-0$ bo'lganda $F_A^{(n)}$ Laurichella funksiyasi*

$$F_A^{(n)}\left(a,\mathbf{b};\mathbf{c};\mathbf{x}\right)\sim-\frac{1}{\Gamma(a)}\prod_{j=1}^{n}\frac{\Gamma\left(c_j\right)}{\Gamma\left(b_j\right)}x_j^{b_j-c_j}\cdot\ln(1-X)$$

ko'rinishdagi logarifmik maxsuslikka ega;

agar $c_1>b_1>0$, ..., $c_n>b_n>0$ va $a+b_1+...+b_n>c_1+...+c_n$ bo'lganda esa

$$F_A^{(n)}\left(a,\mathbf{b};\mathbf{c};\mathbf{x}\right)\sim\frac{\Gamma\left(a+b_1+...+b_n-c_1-...-c_n\right)}{\Gamma(a)}\prod_{j=1}^{n}\frac{\Gamma\left(c_j\right)}{\Gamma\left(b_j\right)}x_j^{b_j-c_j}\cdot(1-X)^{|\mathbf{c}|-|\mathbf{b}|-a}$$

ko'rinishdagi darajali maxsuslikka ega.

1.3-paragrafda ko'p karrali bir xosmas integralni hisoblash formulasi isbotlangan bo'lib, bu formula keyingi boblarda cheksiz sohalarda ko'p o'lchovli elliptik tenglamalar uchun chegaraviy masalalar yechimlarining xossalarini tadqiq etishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

1-lemma. *Agar p_j,q_j,r_j,s,t – haqiqiy sonlar bo'lib,*

$$p_j>0,\ q_j>0,\ r_j>0,\ s>0,\ 0<\frac{p_1}{q_1}+...+\frac{p_n}{q_n}-t<s,\ j=\overline{1,n},$$

bo'lsa, u holda quyidagi tenglik o'rinli:

$$\int_0^{+\infty}\int_0^{+\infty}...\int_0^{+\infty}\frac{x_1^{p_1-1}...x_n^{p_n-1}dx_1...dx_n}{\left[\left(r_1x_1\right)^{q_1}+...+\left(r_nx_n\right)^{q_n}\right]^t\left[1+\left(r_1x_1\right)^{q_1}+...+\left(r_nx_n\right)^{q_n}\right]^s}=$$

$$=\frac{\Gamma\left(\frac{p_1}{q_1}\right)...\Gamma\left(\frac{p_n}{q_n}\right)\Gamma\left(\frac{p_1}{q_1}+...+\frac{p_n}{q_n}-t\right)\Gamma\left(s+t-\frac{p_1}{q_1}-...-\frac{p_n}{q_n}\right)}{q_1q_2...q_nr_1^{p_1q_1}...r_n^{p_nq_n}\Gamma\left(\frac{p_1}{q_1}+...+\frac{p_n}{q_n}\right)\Gamma\left(s\right)}.$$

Dissertatsiyaning **"Bir necha singulyar koeffitsiyentli fazoviy elliptik tenglama uchun cheksiz sohada chegaraviy masalalar"** deb nomlangan ikkinchi bobida $F_A^{(n)}$ Laurichella funksiyasining birinchi bobda isbotlangan yangi xossalaridan va ko'p karrali bir xosmas integralni hisoblash formulasidan foydalanib,

$$L_\alpha^{(m,n)}(u)\equiv\sum_{i=1}^{m}\frac{\partial^2u}{\partial x_i^2}+\sum_{j=1}^{n}\frac{2\alpha_j}{x_j}\frac{\partial u}{\partial x_j}=0,\ 0<2\alpha_j<1,\ j=\overline{1,n}\qquad(1)$$

ko'rinishdagi singulyar elliptik tenglama uchun m-o'lchovli Evklid fazosining 2^{-n}-qismida Dirixle va Neyman masalalari hamda aralash shartlar bilan berilgan masala tadqiq etilgan. Bu yerda va bundan keyin $\alpha=\left(\alpha_1,...,\alpha_n\right)$, $|\alpha|=\alpha_1+...+\alpha_n$ deb qabul qilamiz.

$\mathbb{R}_m$ – m-o‘lchovli Evklid fazosi $(m \geq 2)$ va $(x_1,...,x_m)$ – undagi ixtiyoriy nuqta bo‘lib, n – natural son va $n \leq m$ bo‘lsin. $\mathbb{R}_m$ fazoning cheksiz 2^{-n}-qismini quyidagicha aniqlaymiz:

$$\Omega \equiv \Omega_m^{n+} = \left\{(x_1,...,x_m): x_i > 0,\ i = \overline{1,n};\ -\infty < x_j < +\infty,\ j = \overline{n+1,m}\right\}.$$

$x = (x_1,...,x_m)$ va $\xi = (\xi_1,...,\xi_m)$ – $\mathbb{R}_m$ dagi vektorlarni, $\tilde{x}_k$ va $\tilde{\xi}_k$ esa k-komponentasi qatnashmayotgan vektorlarni belgilaydi;

$$x^{(2\alpha)} = \prod_{i=1}^{n} x_i^{2\alpha_i}; \quad \tilde{x}_k^{(2\alpha)} = \prod_{i=1, i\neq k}^{n} x_i^{2\alpha_i}; \quad R = \sqrt{x_1^2 + .. + x_m^2}, \quad X_k = \sqrt{1 + R^2 - x_k^2}.$$

Ushbu $S_j = \left\{x : x_1 > 0,..., x_{j-1} > 0, x_j = 0, x_{j+1} > 0,..., x_n > 0,\ -\infty < x_{n+1},..., x_m < +\infty\right\}$ cheksiz sohalar Ω sohaning yon yoqlari deyiladi. $D_k = \bigcup_{j=k+1}^{n} S_j,\ k = \overline{0, n-1}.$

Ikkinchi bobning dastlabki ikkita boblarida (1) tenglama uchun Ω cheksiz sohada Dirixle va Neyman masalalari tadqiq etilgan va qo‘yilgan masalalar yechimlarining mavjud va yagonaligi isbotlangan.

Dirixle masalasi (D^{∞} masala.) (1) tenglamaning $u(x) \in C(\overline{\Omega}) \cap C^2(\Omega)$ sinfga tegishli bo‘lgan va $u(x)\big|_{x_k=0} = \tau_k(\tilde{x}_k), \tilde{x}_k \in S_k$,

$$\lim_{R\to\infty} u(x) = 0,\ m > 2 \tag{2}$$

shartlarni qanoatlantiruvchi regulyar yechimi topilsin, bu yerda $\tau_k(\tilde{x}_k)$ – berilgan funksiyalar bo‘lib, $\tau_k(\tilde{x}_k) = \dfrac{\tilde{\tau}_k(\tilde{x}_k)}{X_k^{2\varepsilon_k}}$, $\tilde{\tau}_k(\tilde{x}_k) \in C(\overline{S}_k)$, $\varepsilon_k > 0$ ko‘rinishda tasvirlanadi. Bundan tashqari, $\tau_k(\tilde{x}_k)$ funksiyalar kelishish shartlarini qanoatlantiradi: $\tau_k(\mathbf{0}) = \tau_j(\mathbf{0}),\ \tau_k(\tilde{x}_k)\big|_{x_j=0} = \tau_j(\tilde{x}_j)\big|_{x_k=0},\ k \neq j, k, j = \overline{1,n}.$ Bu yerda $\mathbf{0} = (0,...,0)$ – $(m-1)$ ta komponentali nol-vektor.

3-teorema. *(1) tenglama uchun D^{∞} masalasi cheksiz Ω sohada bittadan ortiq yechimga ega bo‘lishi mumkin emas.*

4-teorema. *α_1, ..., α_n – haqiqiy sonlar bo‘lib, $0 < 2\alpha_k < 1$ bo‘lsin. $m \geq 2$ bo‘lganda (1) tenglama uchun Ω cheksiz sohada D^{∞} masalasi yechimi*

$$u(x) = \sum_{k=1}^{n} \int_{S_k} \tau_k(\tilde{\xi}_k)\, \tilde{\xi}_k^{(2\alpha)} \left(\xi_k^{2\alpha_k} \frac{\partial q_n(x,\xi)}{\partial \xi_k} \right)\Bigg|_{\xi_k=0} dS_k$$

formula bilan yoziladi, bu yerda $q_n(x,\xi)$ – (1) tenglamaning fundamental yechimi:

$$q_n(x,\xi) = \gamma_n \prod_{k=1}^{n} (x_k \xi_k)^{1-2\alpha_k} r^{-2\beta_n} F_A^{(n)} \left[\begin{matrix} \beta_n, 1-\alpha_1, ..., 1-\alpha_n; \\ 2-2\alpha_1, ..., 2-2\alpha_n; \end{matrix} \sigma \right], \quad \beta_n = \frac{m-2}{2} + n - |\alpha|,$$

γ_n *- ma’lum son;*

$$\sigma=\left(-\frac{4x_1\xi_1}{r^2},...,-\frac{4x_n\xi_n}{r^2}\right),\ \ r=\sqrt{\sum_{i=1}^{m}(x_i-\xi_i)^2}. \qquad (3)$$

Bu yerda va bundan keyin $\int\limits_{S_k}...dS_k$ deganda $\Omega\cap\{x_k=0\}$ soha bo‘yicha olingan $(m-1)$-karrali xosmas integral tushuniladi:

$$\int\limits_{S_k}...dS_k=\underbrace{\int\limits_{-\infty}^{+\infty}...\int\limits_{-\infty}^{+\infty}}_{m-n}\underbrace{\int\limits_{0}^{+\infty}...\int\limits_{0}^{+\infty}}_{n-1}...d\xi_1...d\xi_{k-1}d\xi_{k+1}...d\xi_n d\xi_{n+1}...d\xi_m.$$

Neyman masalasi (N^∞ **masala.)** (1) tenglamaning $u(x)\in C\left(\overline{\Omega}\right)\cap C^1\left(\Omega\cup D_0\right)\cap C^2(\Omega)$ sinfga tegishli bo‘lgan, $\left.\left(x_k^{2\alpha_k}\frac{\partial u(x)}{\partial x_k}\right)\right|_{x_k=0}=\nu_k\left(\tilde{x}_k\right)$, $\tilde{x}_k\in S_k$ va (2) shartlarni qanoatlantiruvchi regulyar yechimi topilsin, bu yerda $\nu_k\left(\tilde{x}_k\right)$ – berilgan funksiyalar bo‘lib, $\left|\nu_k\left(\tilde{x}_k\right)\right|\le\frac{\tilde{\nu}_k(\tilde{x}_k)}{X_k^{1-2\alpha_k+\varepsilon_k}}$, $\tilde{\nu}_k(\tilde{x}_k)\in C(S_k)$, $\varepsilon_k>0$ – ko‘rinishda tasvirlanadi. Bundan tashqari, koordinatalar boshida $\nu_k\left(\tilde{x}_k\right)$ funksiyalar $m-1-2|\alpha|+2\alpha_k$dan kichik tartibli cheksizlikka intilishi mumkin; $k=\overline{1,n}$.

5-teorema. *(1) tenglama uchun N^∞ masalasi cheksiz Ω sohada bittadan ortiq yechimga ega emas.*

6-teorema. *α_1, ..., α_n – haqiqiy sonlar bo‘lib, $0<2\alpha_k<1$ bo‘lsin. $m\ge 2$ bo‘lganda (1) tenglama uchun Ω cheksiz sohada N^∞ masalasi yechimi $u(x)=-\sum\limits_{k=1}^{n}\int\limits_{S_k}\nu_k\left(\tilde{\xi}_k\right)\tilde{\xi}_k^{(2\alpha)}\left.q_0(x;\xi)\right|_{\xi_k=0}dS_k$ formula bilan topiladi, bu yerda $q_0(x,\xi)$ – (1) tenglamaning fundamental yechimi:*

$$q_0(x,\xi)=\gamma_0 r^{-2\beta_0}F_A^{(n)}\begin{bmatrix}\beta_0,\ \alpha_1,...,\alpha_n; \\ 2\alpha_1,...,2\alpha_n;\end{bmatrix}\sigma_1,...,\sigma_n\Bigg],\quad \beta_0=|\alpha|+\frac{m+2}{2},$$

σ_k va r ifodalar (3) da aniqlangan, γ_0 esa ma’lum son.

Ikkinchi bobning uchinchi paragrafida (1) tenglama uchun Ω cheksiz sohada aralash shartlar bilan berilgan masala yechimining mavjud va yagonaligi isbotlangan.

Aralash shartlar bilan berilgan masala ($(D^kN^{n-k})^\infty$ **shartli masala).**

(1) tenglamaning $u(x)\in C\left(\overline{\Omega}\right)\cap C^1\left(\Omega\cup D_k\right)\cap C^2(\Omega)$ sinfga tegishli bo‘lgan,

$$\left.u(x)\right|_{x_p=0}=\tau_p(\tilde{x}_p),\ p=\overline{1,k},\qquad \left.\left(x_p^{2\alpha_p}\frac{\partial u(x)}{\partial x_p}\right)\right|_{x_p=0}=\nu_p\left(\tilde{x}_p\right),\ p=\overline{k+1,n},$$

va (2) shartlarni qanoatlantiruvchi $u_k(x)$ regulyar yechimi topilsin, bu yerda $\tau_p(\tilde{x}_p)$ va $\nu_p(\tilde{x}_p)$ berilgan funksiyalar bo‘lib, quyidagi tasvirlarga ega:

$$\tau_p(\tilde{x}_p)=\frac{\tilde{\tau}_p(\tilde{x}_p)}{X_p^{m-2+|\alpha|}},\ \ \tilde{\tau}_p(\tilde{x}_p)\in C\left(\bar{S}_p\right);\ \nu_p(\tilde{x}_p)=\frac{\tilde{\nu}_p\left(\tilde{x}_p\right)}{X_p^{m-1+|\alpha|-2\alpha_p}},\tilde{\nu}_p(\tilde{x}_p)\in C(S_p).$$

Bundan tashqari, $\tau_p(\tilde{x})\,(p=\overline{1,k})$ funksiyalar Ω sohaning dastlabki k ta $S_1,...,\ S_k$ yon yoqlarida va koordinatalar boshida kelishuv shartlarini qanoatlantiradi:
$\tau_1\big|_{x_2=0}=\tau_2\big|_{x_1=0},\tau_2\big|_{x_3=0}=\tau_3\big|_{x_2=0},...,\tau_{k-1}\big|_{x_k=0}=\tau_k\big|_{x_{k-1}=0};\ \tau_1(\mathbf{0})=...=\tau_k(\mathbf{0});\ 0\le k\le n.$

7-teorema. *Agar yetarlicha katta* R *larda quyidagi tengsizliklar o‘rinli bo‘lsa:* $|u|\le\dfrac{C_k}{R^{m-2+|\alpha|}};\ \left|\dfrac{\partial u}{\partial x_i}\right|\le\dfrac{C_k}{R^{m-1+|\alpha|}},\ i=\overline{1,m},$ *u holda* $(D^kN^{n-k})^\infty$ *masala* Ω *cheksiz sohada bittadan ortiq yechimga ega bo‘lishi mumkin emas, bu yerda* $C_k=const>0\ (k=\overline{0,n})$.

8-teorema. $\alpha_1,\ ...,\ \alpha_n$ *– haqiqiy sonlar bo‘lib,* $0<2\alpha_k<1$ *bo‘lsin.* $m\ge 2$ *bo‘lganda (1) tenglama uchun* Ω *cheksiz sohada aralash shartlar bilan berilgan* $(D^kN^{n-k})^\infty$ *masalaning yechimi*

$$u(\xi)=\sum_{p=1}^{k}\int\limits_{S_p}\tau_p(\tilde{x}_p)\tilde{x}_p^{(2\alpha)}\left(x_p^{2\alpha_p}\frac{\partial q_k(x,\xi)}{\partial x_p}\right)\Bigg|_{x_p=0}dS_p-\sum_{p=k+1}^{n}\int\limits_{S_p}\nu_p(\tilde{x}_p)\tilde{x}_p^{(2\alpha)}q_k(x,\xi)\big|_{x_p=0}dS_p,$$

formula bilan topiladi, bu yerda $q_k(x,\xi)$ *– (1) tenglamaning fundamental yechimi:*

$$q_k(x;\xi)=\gamma_k r^{-2\beta_k}\prod_{i=1}^{k}\left(x_i\xi_i\right)^{1-2\alpha_i}F_A^{(n)}\left(\beta_k,\mathrm{A}_k;2\mathrm{A}_k;\sigma_1,...,\sigma_n\right),k=\overline{0,n},$$

$$\beta_k=\frac{m-2}{2}+k-\sum_{i=1}^{k}\alpha_i+\sum_{i=k+1}^{n}\alpha_i,\ \mathrm{A}_k=\left(1-\alpha_1,...,1-\alpha_k,\alpha_{k+1},...,\alpha_n\right),k=\overline{0,n},$$

σ_k *va* r *ifodalar (3) da aniqlangan,* γ_k *esa ma’lum son.*

“Singulyar fazoviy elliptik tenglama uchun chekli sohada aralash va Neyman masalalari” deb nomlangan uchinchi bobda ikkilangan va oddiy qatlam potensiallari tadqiq etiladi va olingan natijalar ko‘p o‘lchovli singulyar elliptik tenglama uchun yarim fazoda chegaralangan sohada qo‘yilgan chegaraviy masalalarni yechishga qo‘llaniladi.

Potensiallar nazariyasi elliptik tenglamalar uchun qo‘yilgan chegaraviy masalalarni yechishda juda muhim ahamiyatga ega, chunki o‘zgaruvchilarga ajratish va Grin funksiyasi usullarida chegaraviy masalaning yechimini ancha sodda sohalardagina oshkor ko‘rinishda topish imkoniyati bor. Shu munosabat bilan chegaraviy masalalarni ikkilangan va oddiy qatlam potensiallari yordamida integral tenglamalarga keltirish, bir tomondan, chegaraviy masala yechimining mavjud va yagonaligini tekshirish nuqtai nazaridan ancha qulay, boshqa tomondan esa, chegaraviy masalani murakkabroq sohalarda sonli yechish imkonini beradi.

Uchinchi bobning 3.1-paragrafi (1) ko‘rinishdagi singulyar elliptik tenglama uchun aralash va Neyman masalalarining qo‘yilishiga va bu masalalar yechimlarining yagonaligi masalalariga bag‘ishlangan. Ikkinchi bobda ta’riflangan Ω sohaning S_1, ..., S_n yon yoqlari va m-o‘lchovli $R_m^n = \{x: 0 < x_i < a_i, i = \overline{1,n};$ $-b_i < x_i < c_i, i = \overline{n+1,m}\}$ parallelepipedda joylashgan va Ox_i $(i = \overline{1,m})$ koordinata o‘qlari bilan A_i $(i = \overline{1,n})$, B_i va C_i $(i = \overline{n+1,m})$ nuqtalarda kesishadigan S Lyapunov sirti bilan chegaralangan sohani D bilan belgilaymiz, bu yerda m – R_m Evklid fazosining o‘lchami va n – (1) tenglamaning singulyar koeffisiyentlari soni, $m \geq 2$, $n \geq 1$, $n \leq m$; a_i, b_i va c_i – musbat sonlar; A_i, B_i va C_i – Ox_i o‘qdagi nuqtalar bo‘lib, bu nuqtalarning i-koordinatalari, mos ravishda, a_i, $-b_i$ va c_i ga teng, qolgan koordinatalari esa nolga teng.

Elliptik tenglamalar uchun chegaraviy masalalarni yechishda, shu jumladan, potensiallar nazariyasini qurishda berilgan tenglamaning fundamental yechimlari muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kunda (1) tenglama kabi bir necha singulyar koeffitsiyentli fazoviy elliptik tenglamalarning fundamental yechimlari qurilgan bo‘lsada, yaqin vaqtlargacha potensiallar nazariyasini qurish ikki o‘lchovli bitta yoki ikkita singulyar koeffitsiyentli tenglamalar bilangina cheklanib qoldi.

S sirtga o‘tkazilgan N tashqi normal bo‘yicha olingan hosilani

$$B_{Nx}^{\alpha}[f] = x^{(2\alpha)}\left(\frac{\partial[f]}{\partial x_1}\cos(N, x_1) + ... + \frac{\partial[f]}{\partial x_m}\cos(N, x_m)\right)$$

ko‘rinishda aniqlaymiz.

Aralash masala ($D^k N^{n-k} M$). (1) tenglamaning D sohada quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi $u(x)$ regulyar yechimini toping:

$$\left.\left(x_p^{2\alpha_p}\frac{\partial u}{\partial x_p}\right)\right|_{x_p=0} = \nu_p(\tilde{x}_p),\ p = \overline{k+1,n},\ \ u|_{x_p=0} = \tau_p(\tilde{x}_p),\ p = \overline{1,k},$$

$B_{Nx}^{\alpha}[u(x)]\big|_S = \varphi_k(x)$, bu yerda τ_p, ν_p va φ_k – yetarlicha silliq funksiyalar, $\tau_i(0) = \tau_j(0)$, $\tau_i(\tilde{x}_{iq}^0) = \tau_j(\tilde{x}_{jq}^0)$, $i \neq q, j \neq q$, $\tau_p(\tilde{x}_p)\big|_{x_p=0} = \varphi_k|_{x_p=0}$, $i, j, p, q = \overline{1,k}$;

koordinatalar boshida $\nu_p(\tilde{x})$ $(p = \overline{k+1,n})$ funksiyalar $m - 1 - 2|\alpha| + 2\alpha_p$ dan kam tartibli cheksizlikka intilishi mumkin; $k = \overline{1,n}$; $\tilde{x}_{pq}^0 = \tilde{x}_p\big|_{x_q=0}$, $p \neq q$.

Neyman masalasi. (1) tenglamaning D sohada

$$B_{Nx}^{\alpha}[u]\big|_S = \varphi(x),\ x \in S,\ \left.\left(x_p^{2\alpha_p}\frac{\partial u}{\partial x_p}\right)\right|_{x_p=0} = \nu_p(\tilde{x}_p), \tilde{x}_p \in D_p,\ p = \overline{1,n}$$

shartlarni qanoatlantiruvchi $u(x)$ regulyar yechimini toping, bu yerda ν_p va φ – berilgan yetarlicha silliq funksiyalar bo‘lib, $\nu_p(\tilde{x})$ funksiyalar koordinatalar boshida $m-1-2|\alpha|+2\alpha_p$ dan kam tartibli cheksizlikka intilishi mumkin.

9-teorema. *Agar $D^k N^{n-k} M$ masala yechimga ega bo‘lsa, bu yechim yagonadir. Agar Neyman masalasi yechimga ega bo‘lsa, u holda bu yechim o‘zgarmas qo‘shiluvchi aniqligida yoziladi.*

3.2-paragrafda $R_m^+ = \{x : x_1 > 0\}$ yarim fazoda

$$H_\alpha^m(u) \equiv \sum_{k=1}^{m} u_{x_k x_k} + \frac{2\alpha}{x_1} u_{x_1} = 0 \ \left(0 < 2\alpha < 1,\ m > 2\right) \qquad (4)$$

bitta singulyar koeffitsiyentli elliptik tenglamaga mos kelgan ikkilangan va oddiy qatlam potensiallari tadqiq etilgan.

$\Gamma - R_m^+$ dagi Lyapunov sirti bo‘lsin, Γ_1– markazi koordinatalar boshida bo‘lgan va $x_1 = 0$ gipertekislikda yotgan a radiusli $(m-1)$-o‘lchovli bo‘lsin. D– Γ sirt va Γ_1 shar bilan chegaralangan chekli soha bo‘lsin. Γ sirt va Γ_1 sharning umumiy chegarasini γ bilan belgilaymiz.

Ushbu $w(x) = \int\limits_\Gamma \mu(\xi) B_{N\xi}^\alpha [q(\xi;x)] d_\xi \Gamma$ va $v(x) = \int\limits_\Gamma \rho(\xi) q(\xi;x) d_\xi \Gamma$ integrallar, mos ravishda, ikkilangan va oddiy qatlam potensiallari deyiladi, bu yerda $\mu(x)$ va $\rho(x)$ – $C(\bar{\Gamma})$ da uzluksiz funksiyalar. $w(x)$ va $v(x)$ potensiallar Γ sirt va $x_1 = 0$ gipertekislik bilan umumiy nuqtaga ega bo‘lmagan va $x_1 > 0$ yarim fazoda joylashgan ixtiyoriy sohada (4) tenglamaning regulyar yechimi bo‘ladi, bu yerda $q(\xi;x) = k \dfrac{(x_1\xi_1)^{1-2\alpha}}{r^{m-2\alpha}} F\left(\dfrac{m}{2} - \alpha, 1-\alpha; 2-2\alpha; -\dfrac{4x_1\xi_1}{r^2}\right)$ – (4) ning fundamental yechimi, r masofa (3) da aniqlangan, k - ma’lum son.

$\mu(\xi) = 1$ bo‘lganda ikkilangan qatlam potensialini $w_1(x)$ bilan belgilaymiz.

10-teorema. *Quyidagi formulalar o‘rinli:*

$$w_1(x) \equiv \int\limits_\Gamma B_{N\xi}^\alpha [q(\xi;x)] d_\xi \Gamma = \begin{cases} i(x) - 1, & x \in \Omega \cup \Gamma_1, \\ i(x) - \dfrac{1}{2}, & x \in \Gamma \cup \gamma, \\ i(x), & x \notin \bar{\Omega}, \end{cases}$$

bu yerda $i(x) = (1-2\alpha)\kappa x_1^{1-2\alpha} \int\limits_{\Gamma_1} \left[x_1^2 + \sum\limits_{k=2}^{m} \left(\xi_k - x_k\right)^2 \right]^{\alpha - \frac{m}{2}} d_\xi \Gamma_1.$

11-teorema. *Agarsli x nuqtalar Γ Lyapunov sirtida yotsa, u holda*

$$\left| B_{N\xi}^\alpha \left[q(\xi;x) \right] \right| \le \frac{C_1}{r_1^{2-2\alpha} r^{m-2}},$$

bu yerda C_1– o‘zgarmas son.

12-teorema. *Agar Γ – Lyapunov sirti bo‘lsa,u holda*

$$\int\limits_{\Gamma}\left|B_{N\xi}^{\alpha}\left[q\left(\xi;x\right)\right]\right|d_{\xi}\Gamma\le C_2,\ k=1,2,$$

bu yerda C_2 *– o‘zgarmas son.*

13-teorema. *x nuqta Γ sirtdagi x_0 nuqtaga ichkaridan va tashqaridan intilganda $w(x)$ ikkilangan qatlam potensiali limit qiymatlarga ega. Agar $w(x)$ ning ichkaridan limit qiymatlarini $w_i(x_0)$ bilan, tashqaridan limit qiymatlarini esa $w_e(x_0)$ bilan belgilasak, u holda*

$$\begin{aligned} w_i(x_0) &= -\frac{1}{2}\mu(x_0)+\int\limits_{\Gamma}\mu(\xi)K(x_0;\xi)d_{\xi}\Gamma,\\ w_e(x_0) &= \frac{1}{2}\mu(x_0)+\int\limits_{\Gamma}\mu(\xi)K(x_0;\xi)d_{\xi}\Gamma, \end{aligned} \qquad (5)$$

formulalar o‘rinli, bu yerda $K(x_0;\xi)=B_{N\xi}^{\alpha}\left[q(\xi;x_0)\right],\quad x_0:=(x_{10},...,x_{m0})$.

14-teorema. *Uzluksiz $\rho(\xi)$ zichlik uchun ushbu formulalar o‘rinli:*

$$\begin{aligned} B_{Nx}^{\alpha}\left[v(x)\right]_i &= \frac{1}{2}\rho(x)+\int\limits_{\Gamma}\rho(\xi)K(\xi;x)d_{\xi}\Gamma,\\ B_{Nx}^{\alpha}\left[v(x)\right]_e &= -\frac{1}{2}\rho(x)+\int\limits_{\Gamma}\rho(\xi)K(\xi;x)d_{\xi}\Gamma. \end{aligned} \qquad (6)$$

(5) va (6) tenglamalar zichliklar uchun integral tenglamalar ko‘rinishida yozilishi mumkin:

$$\mu(x)-\lambda\int\limits_{\Gamma}K(x;\xi)\mu(\xi)d_{\xi}\Gamma=f(x),\quad \rho(x)-\lambda\int\limits_{\Gamma}K(\xi;x)\rho(\xi)d_{\xi}\Gamma=g(x), \qquad (7)$$

bu yerda $\lambda=2$, $f(x)=-2w_i(x)$, $g(x)=-2B_{nx}^{\alpha}\left[v(x)\right]_e$, $\lambda=-2$, $f_k(x)=2w_e(x)$, $g(x)=2B_{nx}^{\alpha}\left[v(x)\right]_i$.

(7) tenglamalar o‘zaro qo‘shma tenglamalardir va 12-teoremaga binoan ularga Fredgolm nazariyasini qo‘llash mumkin.

3.3-paragrafda potensiallar nazariyasida olingan natijalar D sohada (4) tenglama uchun qo‘yilgan aralash va Neyman masalalarini yechishga qo‘llaniladi.

Aralash masala. (4) tenglamaning D sohada regulyar bo‘lgan hamda $B_{nx}^{\alpha}[u]\big|_{\Gamma}=\varphi(x), x\in\Gamma,\quad u(0,x_2,...,x_m)=\tau(\tilde{x}), \tilde{x}\in\overline{\Gamma}_1$ shartlarni qanoatlantiruvchi yechimini toping, bu yerda $\varphi(x)$ va $\tau(\tilde{x})$ – Γ va $\overline{\Gamma}_1$ da berilgan funksiyalar.

Qo‘yilgan masalalarni yechishda Grin funksiyasi usulidan foydalanamiz. Avvalo (4) tenglamaga qo‘yilgan aralash masalaning Grin funksiyasini $x_1>0$ bo‘lgandagi ixtiyoriy sirt va $x_1=0$ bo‘lgandagi yopiq soha bilan chegaralangan sohada quramiz va maxsus yarim sferik sohada aralash masalaning yechimi soddaroq ko‘rinishni olishini ko‘rsatamiz.

15-teorema. *Agar Γ sirt Γ_1 ga to‘g‘ri burchak ostida yaqinlashsa, u holda*

$$u(\xi)=\int\limits_{\Gamma_1}\tau\left(\tilde{x}\right)x_1^{2\alpha}\left.\frac{\partial G\left(x;\xi\right)}{\partial x_1}\right|_{x_1=0}d_{\tilde{x}}\Gamma_1-\int\limits_{\Gamma}\varphi(x)G\left(x;\xi\right)d_x\Gamma,$$

$$u(\xi)=C-\int\limits_{\Gamma_1}\nu\left(\tilde{x}\right)\cdot\left.G\left(x;\xi\right)\right|_{x_1=0}d_{\tilde{x}}\Gamma_1-\int\limits_{\Gamma}\varphi(x)G\left(x;\xi\right)d_x\Gamma$$

funksiyalar D sohada (4) tenglama uchun, mos ravishda, aralash va Neyman masalalarining yechimlari bo'ladi, bu yerda $G\left(x;\xi\right)$– Grin funksiyasi, C esa ixtiyoriy o'zgarmas son.

XULOSA

Dissertatsiya ishi ko'p o'zgaruvchili gipergeometrik funksiyalarning xossalarini isbotlashga va o'rganilgan xossalarni singulyar koeffitsiyentli ko'p o'lchovli elliptik tenglama uchun cheksiz va chekli sohalarda chegaraviy masalalarni yechishga bag'ishlangan.

Birinchi bobda ko'p o'zgaruvchili gipergeometrik funksiyalarning chegaraviy masalalarni yechishda zarur bo'ladigan xossalari tadqiq etilgan, ikkinchi bobda bir necha singulyar koeffitsiyentli ko'p o'lchovli elliptik tenglama uchun cheksiz sohada Dirixle, Neyman va aralash shartli masalalarning yechimlari oshkor ko'rinishlarda topilgan, uchinchi bobda esa ko'p o'lchovli singulyar elliptik tenglama uchun yarim fazoda chegaralangan sohada aralash va Neyman masalalari potensiallar nazariyasi yordamida yechilgan.

Tadqiqotning asosiy natijalari quyidagicha:

Laurichella gipergeometrik funksiyasining qiymatini o'zgaruvchilarning maxsus nuqtasida hisoblash haqidagi limit teorema isbotlandi;

Laurichella gipergeometrik funksiyasining o'zgaruvchilar yig'indisi 1 ga teng bo'lgandagi gipertekislikda logarifmik va darajali maxsuslikka ega bo'lish shartlari aniqlangan;

chegaraviy masalalar yechimlarini tadqiq etishda zarur bo'ladigan ko'p karrali bir xosmas integralni hisoblash formulasi topilgan;

singulyar koeffitsiyentli fazoviy elliptik tenglama uchun Evklid fazosining cheksiz giperoktantida qo'yilgan Dirixle, Neyman va aralash shartli masalalar yechimlarining yagonaligi isbotlangan va masalalarning yechimlari Laurichella gipergeometrik funksiyasi orqali oshkor ko'rinishlarda topilgan;

ko'p o'lchovli bir necha singulyar koeffitsiyentli elliptik tenglama uchun chekli sohada qo'yilgan aralash masalaning yechimi yagona bo'lishi va Neyman masalasining yechimi cheksiz ko'p bo'lib, bu masalaning ixtiyoriy ikkita yechimlari bir-birlaridan o'zgarmas qo'shiluvchiga farq qilishi isbotlangan;

ko'p o'lchovli bitta singulyar koeffitsiyentli elliptik tenglamaning fundamental yechimiga mos kelgan ikkilangan va oddiy qatlam potensiallari kiritilib, bu potensiallarning xossalari tadqiq etilgan va potensiallar nazariyasi bo'yicha olingan natijalar shu tenglama uchun aralash va Neyman masalalarini yechishda qo'llanilgan.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12.2019.FM.05.04 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ФЕРГАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ

ФЕРГАНСКИЙ ФИЛИАЛ ТАШКЕНТСКОГО УНИВЕРСИТЕТА ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ИМЕНИ МУХАММАДА АЛ-ХОРАЗМИЙ

ТУЛАКОВА ЗИЕДАХОН РИВОЖИДИНОВНА

ГИПЕРГЕОМЕТРИЧЕСКИЕ ФУНКЦИИ МНОГИХ ПЕРЕМЕННЫХ И ИХ ПРИМЕНЕНИЯ К РЕШЕНИЮ КРАЕВЫХ ЗАДАЧ ДЛЯ СИНГУЛЯРНЫХ ЭЛЛИПТИЧЕСКИХ УРАВНЕНИЯ В КОНЕЧНОЙ И БЕСКОНЕЧНОЙ ОБЛАСТЯХ

01.01.02 – Дифференциальные уравнения и математическая физика

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD)
ПО ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИМ НАУКАМ

Фергана – 2025

Тема диссертации доктора философии (Doctor of Philosophy) по физико – математическим наукам зарегистрирована в Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за №B 2024.2.PhD/FM1059.

Диссертация выполнена в Ферганском филиале Ташкентского университета информационных технологий имени Мухаммада ал-Хоразмий.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб – странице Научного совета (www.fdu.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Эргашев Тухтасин Гуламжанович** доктор физико-математических наук, доцент
Официальные оппоненты:	**Джамалов Сирожиддин Зухриддинович** доктор физико-математических наук, профессор
	Иргашев Бахром Юсупханович кандидат физико-математических наук
Ведущая организация:	**Ургенчский государственный университет**

Защита диссертации состоится «20» 03 2025 года в 13:00 часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.FM.05.04 при Ферганском государственном университете. (Адрес: 150100, г. Фергана, ул. Мураббийлар, дом 19. Тел: (+99873) 244-44-02, факс: (+99873) 244-44-93, e-mail: fardu_info@umail.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно–ресурсном центре Ферганского государственного университета (зарегистрирована за №470). (Адрес: 150100, г. Фергана, ул. Мураббийлар, дом 19). Тел.: (+99873) 244-44-94.

Автореферат диссертации разослан «7» 03 2025 года.
(протокол рассылки №5 от «7» 03 2025 года).

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI
O'ZBEKISTON

Ш.Т. Каримов
Заместитель председателя научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф-м.н., доцент

И.У. Хайдаров
Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, к.ф-м.н., доцент

Ю.П. Апаков
Заместитель председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, д.ф-м.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Исследования многих практических задач, проводимые на мировом уровне, приводят к решению краевых задач для дифференциальных уравнений. В частности, математические модели механики, гидродинамики, динамики упругости, электромагнетизма и акустических процессов сводятся к дифференциальным уравнениям с сингулярными коэффициентами. Например, основные законы биологии и газовой динамики сведены к краевым задачам для дифференциальных уравнений эллиптического типа с сингулярными коэффициентами. Видно, что исследование краевых задач для сингулярных эллиптических уравнений важно как одно из современных направлений теории уравнений в частных производных в связи с тем, что оно создает полную картину рассмотренных выше практических задач.

В мире ведутся научные исследования по вопросам поиска новых формул вычисления значений гипергеометрических функций многих переменных в особых точках и кратных несобственных интегралах. В связи с этим особое внимание уделяется целенаправленным научным исследованиям по установлению новых свойств гипергеометрических функций многих переменных и доказательству формулы вычисления многократного обобщенного несобственного интеграла, а также применению полученных новых результатов к построению явных решений краевых задач в бесконечных областях и решению смешанной задачи с помощью теории потенциалов в конечной области для многомерного сингулярного эллиптического уравнения.

В нашей республике реализуются комплексные мероприятия, имеющие научное и практическое применение в фундаментальных исследованиях, в частности в математической биологии и газовой динамике, и достигаются определенные результаты. В частности, в последние годы доказаны нерекуррентные формулы разложения для гипергеометрических функций Лауричелла и достигнуты значительные результаты при решении краевых задач в конечных областях для сингулярных пространственных эллиптических уравнений. В качестве основных задач и направлений деятельности математики определено проведение научных исследований на уровне международных стандартов по приоритетным направлениям «Дифференциальные уравнения и математическая физика, теория динамических систем».[1] В целях использования научных результатов в смежных областях науки важными считаются решение основных краевых задач и построение теории потенциала для многомерного сингулярного эллиптического уравнения, соответственно, в бесконечных и конечных областях.

---

[1] Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 18 мая 2017 года № 292 «О мерах по организации деятельности вновь созданных научно-исследовательских учреждений Академии наук Республики Узбекистан»

